

## ABU MUSLIM QO'ZG'OLONI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
tarix yo'nalishi 4-kurs talabasi  
Xudoynazarov Alovuddin*

**Annotatsiya.** Maqola O'rta Osiyoda ko'tarilgan, Arab xalifaligi davridagi katta talofatlarga sabab bo'lgan Abu Muslim qo'zg'oloni haqida yozildi. Qo'zg'olon xalifalik davridagi katta talofatlarga olib kelgan qo'zg'olonlardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Ummaviylar, Abbosiylar, Xuroson, Iroq va Ajam, Movarounnahr, xiroj, hashar, Abu Muslim.

**Абстрактный.** В статье рассказывается о восстании Абу Муслима, одном из крупнейших восстаний в Центральной Азии во времена Арабского халифата. Восстание считается одним из самых дорогостоящих восстаний во времена Халифата.

**Ключевые слова:** Омейяды, Аббасиды, Хорасан, Ирак и персы, Трансоксиана, Хирадж, Хашар, Абу Муслим.

**Abstract.** The article is about the Abu Muslim revolt, which was one of the major uprisings in Central Asia during the Arab Caliphate. The revolt is considered one of the most costly uprisings during the Caliphate.

**Keywords:** Umayyads, Abbasids, Khorasan, Iraq and the Persians, Transoxiana, Hiraj, Hashar, Abu Muslim.

**Kirish.** yerga egalik munosabatlarning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi ummaviylarning siyosiy sahnadan ketishlarini, ularning avvalgi mavqeyi tugaganligini ko'rsatib turar edi. Ummaviy sulolasining siyosatidan keyin ommaviy norozilik, ayniqsa Marvon II xalifaligi davrida kuchayib ketdi. Xalifa hukmronligi davrida xiroj solig'I miqdorini ko'paytirish va mahalliy xalqlar vakillarini qurulish ishlariga keng jalb qilishi norozilikning alanganishiga olib keldi. Movarounnahr va Xurosonda Abbosiylar vakillari katta yer egalarini o'zlari tomondan yo'naltirishga harakat qildilar. Sulola vakili Xishom davridayoq O'rta Osiyoda harakat qila boshlaydilar.<sup>1</sup>

**Muhokama va natijalar.** Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim va uning harakati muhim ahamiyat kasb etadi. 746-yil Abu Muslim abbosiylar targ'ibotiga boshchilik qilish uchun Xurosonga yuboriladi. Abu Muslimga "Payg'ambarlar xonadonining ishonchli vakili" degan unvon beriladi. O'z tashviqotini Abu Muslim Xuroson zodagonlariga murojaat etish bilan boshlaydi. U Marv shahridan

<sup>1</sup> N.A.R.Gibb " Arablarning O'rta Osiyoga yurishlari tarixi".

uch farsax g'arbdagi Xarkon arig'i sohilidagi Safizanj qishlog'ini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Abbosiylarning ramziy rangi va bayrog'i qora rangda edi. Shu sababli Abu Muslim va uning tarafdorlari qora kiyib yurishar edi. Xuroson aholisiga murojaatida u Qur'on va hadislariga amal qilishga, payg'ambar avlodlariga bo'ysunishga chaqiradi. Keyinchalik mahalliy zodagonlar ham uni qo'llab-quvvatlay boshlashadi. Abu Muslim tashviqoti Movarounnahr va Xuroson yerlarida tezlik bilan tarqala borib, uning tarafdorlari soni orta boshlaydi. To'planayotgan otliq va piyodalarga bosh bo'lib, Abu Muslim Moxuvon qa'lasiga ko'chib o'tadi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Abu Muslimga qarshi arab zodagonlari vakillarini birlashtirishga harakat qiladi. Lekin uning barcha harakatlari zoye ketadi. U Abu Muslimga yurak yutib kurash boshlashga qurbi yetmay, 748-yilda Xuroson poytaxti Marvni taslab chiqib, Nishopurga yo'l oladi. Nishopurda unga Abu Muslimning sarkardalaridan biri qaqshatqich zarba berib, uni mag'lubiyatga uchratadi.<sup>2</sup>

749-yili Abu Muslim qo'shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qiladi. Iroq va Jazoirda Ummaviylarga hal qiluvchi zarba beriladi. Qo'zg'olonchilar poytaxt Damashqni ham qo'lga kiritishadi. Xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Abbosiylardan bo'lgan Abulabbos Saffoh (749-754) xalifalik taxtiga o'tiradi. Joylarda Ummaviylarning barcha vakillari qirib tashlanadi. Shunday qilib, arab xalifaligi hokimiyati Abbosiylar qo'lga o'tadi. 751-yili Buxoro shahrida Shorik ibn Shayhulhamriy boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar shialik talablarini ilgari surib, Ali avlodiddan xalifa tayinlash shiorini ko'tarib chiqishadi. Abu Muslim qo'zg'olonni bostirishda Ziyod ibn Solih 10.000 kishilik qo'shin yuboradi. Bu qo'zg'olon faqatgina Buxorxudot Qutayba ibn Tug'shodning yordami bilangina bostiriladi.<sup>3</sup>

Abu Muslim O'rta Osiyoning shimoliga kirib kelgan Xitoy imperatorining qo'shiniga ham hal qiluvchi zarba beradi. 751-yil Talas vodiysidagi xitoyliklar bilan bo'lgan jangdan so'ng Xitoy qo'shini haydab chiqariladi. Shu bilan xalifalikning shimoliy chegarasi ham mustahkamlanib, qat'iy chegara o'rnatiladi. Xalifalikning ta'siri butun O'rta Osiyo hududida asosiy va qonuniy bo'lib qoladi. Garchi Abu Muslim sadoqat ila xizmat qilsa-da, arab hokimiyati unga ishonmas edi. Xalifa unga jangga yuborish haqida noma yo'llab, uni markazga kelishga majbur qiladi.<sup>4</sup> 755-yil haj safaridan qaytayotgan Abu Muslim xalifa tomonidan xiyonatkorona tarzda Bag'dodda o'ldiriladi. Uning o'limi xalq ommasining umumiy noroziligiga sabab bo'ladi. Uning murdasi Samarqandga olib kelinib, Xo'ja Temim Ansoriy maqbarasi yoniga katta hurmat bilan ko'miladi. Abbosiy xalifalar davrida xalq ommasining ahvoli yanada og'irlashadi. Sug'orilmaydigan yerlardan hosilning yarmi, sug'oriladigan yerlarning

<sup>2</sup> Q.Usmonova M.Sodiqov S.burxonova "O'zbekiston tarixi"2016.

<sup>3</sup> A.S.Sagdu'llayev "O'zbekiston tarixi" I kitob. Toshkent-2021.

<sup>4</sup> Bartold, V.V. O'rta Osiyo Arab istilosi davrida.

1/3 qismidan soliq olinadigan bo'ldi. Ko'p hollarda soliqlar bir marotaba o'rniga ikki marotaba ham olina boshladi. Ozod jamoalarning huquqlari cheklab qo'yildi. Yerlar zodagonlar tomonidan ijarador dehqon-kadivarlarga bo'lib beriladigan bo'ldi. Hamma hashar, qurilish ishlarida aholi tekin ishlab berishi lozim edi. Shahar hunarmandlarining ahvoli ham og'ir bo'lib, ular o'z mahsulotlaridan kata soliq to'lashar edi. Shuningdek, og'ir soliqlar ko'chmanchi chorvadorlar bo'yniga ham qo'yilar edi.<sup>5</sup>

Shunday bir ahvolda xalq harakatlari kuchayib ketadi. Abu Muslimning o'chini olish shiori ostida uning safdoshi Sumbod boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi. 755-yilda ko'tarilgan bu qo'zg'olon tez orada Xuroson va Tabaristonga ham yoyiladi. 70 kun davom etgan bu qo'zg'olon qattiqqo'llik bilan bostirilib, Sumbod Rayda qatl etiladi. Garchi u qatl etilsa-da, Abu Muslim tarafdorlari yashirin "muslimiya" guruhiga asos solishadi. VIII asrning 70-80-yillarida Movarounnahrda juda ulkan xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar oq rangdagi kiyim kiyganligi uchun tarixda u "oq kiyimlilar" qo'zg'oloni deb ham shuhrat qozonadi. Bu qo'zg'olonning rahbari Muqanna (boshi va yuziga yoping'ich tashlab yurgani uchun unga shunday laqab berilgan) edi. "Muqanna Marv atrofi aholisidan, -deyiladi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" nomli asarida, Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, asl nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudungard (kigiz bosuvchi) lik qilardi, keyin ilm o'rganishga mashg'ul bo'ladi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rganadi. Ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib, qadimgi olimlar ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan edi.<sup>6</sup>

749-yilda Abumuslim boshliq qo'zg'olonchilar xalifalikning markaziy viloyatlariga tomon yo'l oladilar. Qisqa muddat ichida Iroq va Jazoirda ummaviylar qo'shiniga bir necha bor qattiq zarba berib, uni tor-mor keltiradilar. So'ngra xalifalikning poytaxti Damashq shahriga yurish qilinadi. Poytaxt qo'lga kiritilib, xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Uning o'rniga abbosiylar xonadonidan bo'lgan Abulabbos Saffoh xalifalik taxtiga ko'tariladi. Joylarda ummaviylar xonadonining vakillari va yaqinlari qirib tashlanadi.<sup>7</sup>

Shunday qilib, Arab xalifaligida davlat abbosiylar qo'liga o'tadi. Bu yangi sulolaning hokimiyat tepasiga chiqishida, shubhasiz, o'z davrining yirik siyosiy arbobi va sarkardasi Abumuslimning xizmatlari nihoyatda buyuk edi. U Xuroson va Movarounnahr aholisini birlashtirib, uning noroziligidan ummaviylarga raqib arab zodagonlari hamda mahalliy mulkdor tabaqaning manfaatlari yo'lida foydalanishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi bilan mehnatkash aholining ahvoriga hech qanday yengillik sodir bo'lmadi.

<sup>5</sup> Shoniyofova, M. O'rta Osiyoda Islom va Arablar hukmronligi.

<sup>6</sup> A.S.Sagdu'llayev "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2019.

<sup>7</sup> A. Asqarov. O'zbekiston tarixi I-jild. Toshkent, Ma'naviyat, 2022.

Abumuslim vositasida abbosiylar tomonidan xalq ommasiga berilgan. Va'dalardan birortasi ham amalga oshmadi. Chunki ummaviylarga qarshi abbosiylar boshliq arab raqiblari ham, Abumuslim rahnamosidagi mahalliy zodagon dehqonlar ham xalqning chinakam ozodlik tilaklariga yot, xalq harakatlarining chuqurlashib ketishiga qarshi bo'lgan hokim tabaqa vakillari edi.<sup>8</sup>

**Xulosa.** Abu Muslim qo'g'oloni VIII asrning ikkinchi yarmida Abbosiylar inqilobi doirasida sodir bo'lgan muhim voqealardan biridir. Bu harakat asosan Xuroson va Movarounnahr hududlarida ommalashib, Ummaviylar sulolasining qulashiga va abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishiga sabab bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.A.R.Gibb " Arablarning O'rta Osiyoga yurishlari tarixi".
2. Q.Usmonova M.Sodiqov S.burxonova "O'zbekiston tarixi"2016.
3. A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" I kitob. Toshkent-2021.
4. Bartold, V.V. O'rta Osiyo Arab istilosi davrida.
5. Shoniyozova, M. O'rta Osiyoda Islom va Arablar hukmronligi.
6. A. Asqarov. O'zbekiston tarixi I-jild. Toshkent, Ma'naviyat, 2022.
7. A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2019.
8. A.R.Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi" (IV asrdan XVI asr boshlarigacha). Toshkent-2004.

---

<sup>8</sup> A.R.Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi" (IV asrdan XVI asr boshlarigacha). Toshkent-2004.